



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERFAOL METODLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Tursunova Marjona Ismatillayevna**

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, mavzuni chiqurroq o‘zlashtirishi va muloqot madaniyatini shakllantirishdagi roli yoritilgan. An’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, interfaol metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga olib chiqadi. Maqolada amaliy misollar, samarali yondashuvlar hamda dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan strategiyalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Interfaol metod, dars samaradorligi, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi faolligi, muammoli ta’lim, jamoaviy ish, fikr almashish, kompetensiya.*

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimiga bo‘lgan talablar keskin o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy maktab o‘quvchisi faqat bilimlarni yodlaydigan emas, balki ularni hayotda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini asoslay oladigan shaxs sifatida shakllanishi zarur. Bu esa o‘qituvchidan dars jarayonini shunchaki ma’lumot berishdan iborat bo‘limgan, balki o‘quvchini faol subyektga aylantiradigan uslublardan foydalanishni talab qiladi. Aynan shunday yondashuvlardan biri – interfaol ta’lim metodlaridir.

Interfaol metodlar – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro teng ishtirok, faol muloqot, birgalikda muammoni hal qilish, qaror qabul qilish asosida qurilgan dars shaklidir. Bu yondashuv o‘quvchilarning diqqatini faollashtiradi, ularni dars mazmuniga jalb qiladi, savol berish, fikr bildirish va bahslashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu metodlar darslarni jonlantiradi, bolalarning qiziqishini kuchaytiradi va darsni esda qolarli qiladi.

Ta’limning dastlabki bosqichi — boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyat qozonishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu bosqichda bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi, darslarga bo‘lgan qiziqishning shakllanishi, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishi o‘quvchining umrbod ta’limga nisbatan munosabatini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, dars jarayonining samaradorligini oshirish muhim vazifa bo‘lib, bu borada interfaol metodlarning o‘rnini beqiyosdir.

Interfaol metodlar — bu o‘quvchilarning darsda faol ishtirokini ta’minlaydigan, ularni fikrlashga, bahslashishga, muammolarni hal qilishga undaydigan o‘qitish usullaridir. Bu metodlar dars jarayonini o‘qituvchi markazidan o‘quvchi markaziga ko‘chirishga xizmat qiladi. Ya’ni, o‘quvchi bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki o‘zi izlaydi, aniqlaydi,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu esa uning bilimni chuqurroq va barqaror o'zlashtirishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan faol, harakatchan, savol berishga va o'rganishga qiziqqan bo'lishadi. Interfaol metodlar ana shu tabiiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Venn diagrammasi", "Fikrlar jarchisi", "3-2-1 texnikasi" kabi usullar orqali har bir o'quvchi darsda o'z fikrini erkin bildirib, muhokama jarayonida faol ishtirok etadi.

Amaliyot ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklida o'quvchilarning faolligi past bo'ladi: u lar ko'proq tinglovchi rolida qatnashadi, fikr bildirishga tortinishadi. Aksincha, interfaol metodlar qo'llanilgan darsda bolalar savol beradi, fikr bildiradi, jamoa bo'lib ishlaydi, babs-munozarada qatnashadi. Bu esa nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalar, ya'ni muloqotga kirishish, fikrni ifoda qilish, boshqalarni tinglay olish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Interfaol metodlarning yana bir muhim jihat — darsni individual, juftlikda va guruh bo'lib tashkil qilish imkoniyatidir. Bu orqali o'quvchilarning bir-biridan o'rganish jarayoni sodir bo'ladi. Guruhli ishlarda o'quvchilar o'zaro fikr almashish, vazifalarni bo'lib bajarish, muammoga birgalikda yechim topish orqali hamkorlikda o'rganishga o'rganadilar. Ayniqsa, bu yondashuv kinestetik va kinestetik-vizual tipdagi o'quvchilar uchun ayni muddao hisoblanadi.

Interfaol metodlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi o'z darsini puxta rejalshtirishi, har bir metodni maqsadga muvofiq tanlashi, vazifalarni o'quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga moslashtirishi lozim. Metodning o'zi emas, balki uni qanday tashkil etish muhim. Shuning uchun metoddan foydalanishda quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi: aniqlik, faollik, mustaqillik, fikr erkinligi, hamkorlik va rag'bat.

Shuningdek, interfaol metodlar orqali darsni tashkil qilish o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, ijodkorlik, bolalar bilan muloqot o'rnatish qobiliyatini talab etadi. Interfaol yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'n altiruvchi, maslahat beruvchi, motivatsiya beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. O'quvchilar esa bilim olishda faol rol o'ynaydi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron testlar, vizual taqdimotlar, onlayn viktorinalar, animatsiyalar, "quizz" va "kahoot" kabi ilovalar yordamida darsni qiziqarli, jonli va samarali tashkil etish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarning axborot bilan ishslash, raqamli savodxonlik, tez fikrlash va jamoaviy ishslash ko'nikmalarini ham rivojlanadir.

Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanish — bu darsda o'quvchining ishtirokini oshirish, uni faollashtirish, fikrlash va nutqini rivojlantirish, bilimlarni hayotga tatbiq etishga yo'naltirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bunday darslarda o'quvchi o'zini muhim deb his qiladi, darsda o'z fikri, savoli, yechimi bilan ishtirok etadi. Bu esa





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ta'lism jarayonining asosiy maqsadi — mustaqil, faol, ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lism jarayonida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammo yechishga, hamkorlikda ishlashga o'rgatuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich ta'limga interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu metodlar orqali o'quvchi dars jarayonining markaziga chiqadi, o'z fikrini bildiradi, boshqalarni tinglaydi, tahlil qiladi va muammoni hal qilishda faol qatnashadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar bilimni chuqurroq o'zlashtiradi, darsga nisbatan ishtiyoqi ortadi va mustahkam ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'ladi. Darsda qo'llanilgan har bir uslub maqsadga muvofiq tanlansa, natijada bilim sifatining o'sishi, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash darajasining oshishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limga interfaol metodlardan foydalanish — bu shunchaki innovatsion yondashuv emas, balki har bir o'quvchining imkoniyatini ochish, uning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy shakllantirish va barqaror bilim egallashiga erishishning asosiy vositasidir. Bunday metodlar o'quvchini o'rganishga undaydi, bilim olishga emas, fikrlashga yo'naltiradi, bu esa bugungi ta'limga asosiy talabi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026 yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur".
2. Azizzoxjaeva, N.N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati*. – T.: TDPU.
3. Xodjiyeva, M.M. (2021). "Boshlang'ich ta'limga interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati", *Boshlang'ich ta'limg jurnali*, №2.
4. Shodmonova, S.S. (2020). "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning amaliyoti", *Ta'lim va rivojlanish*, №4.
5. Marzano, R.J. (2007). *The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction*. – ASCD.
6. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
7. Xolmatova, D. (2019). "Interfaol metodlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini faollashtirish", *Ilmiy-uslubiy to'plam*, №1.
8. Vahobova, N. (2022). *Boshlang'ich ta'limga dars samaradorligini oshirishda zamonaviy metodlar*. – T.: Fan nashriyoti.

